



“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil “05” 07 dagi
3-qr- -son qaroriga
8-ILOVA

“O‘ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

USTAVI
(yangi tahrir)

Toshkent – 2023-y.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining ushbu Ustavi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

1.2. “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5083-son “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va Jamiyatning yagona aksiyadori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 24-iyuldagi 1-son qarori bilan ta’sis etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ101-son qaroriga asosan Jamiyatning 100 foiz davlat ulushi Davlat aktivlarni boshqarish agentligiga o‘tkazilgan.

1.3. Jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonun hujjatlari va mazkur Ustavga muvofiq olib boradi.

1.4. Jamiyatning to‘liq nomi:

davlat tilida – “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (qisqartirilgan firma nomi – “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ) yoki kirill alifbosida “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik Jamiyati (qisqartirilgan nomi – “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ);

ingliz tilida – “Uzbek geological exploration” joint-stock company (qisqartirilgan nomi – “Uzbek geological exploration” JSC);

rus tilida – Aksionernoye obshestvo “Uzbekgeologorazvedka” (qisqartirilgan nomi – AO “Uzbekgeologorazvedka”).

1.5. Jamiyatning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, T.Shevchenko 11a uy, pochta indeksi - 100060.

1.6. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzgeo.uz

1.7. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.uzgeo.uz

II. JAMIYATNING HUQUQIY MAQOMI

2.1. Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, suda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2.2. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Jamiyatning faoliyat muddati cheklanmagan.

2.3. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.4. Jamiyat davlat tilida to‘liq yozilgan nomi hamda yuridik manzili ko‘rsatilgan asosiy muhrga, yordamchi muhrlar, shtamplar va rasmiy blankalariga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2.6. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

2.7. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

2.8. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.9. Agar Jamiyatning bankrotligi Jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavda ko'rsatib o'tilgan taqdirdagina ega bo'ladi.

2.10. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador Jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan Jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

2.11. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.12. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq o'zining filiallarini tashkil etishi va o'z vakolatxonalarini ochishi mumkin.

Filial yoki vakolatxonaning rahbari qonun hujjatlari va mazkur Ustav bilan belgilangan tartibda tayinlanadi va Jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida faoliyat yuritadi.

Filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik Jamiyat zimmasida bo'ladi.

Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida – xorijiy mamlakatlarda filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.13. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlik Jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan Jamiyat shaklidagi sho'ba yoki tobe xo'jalik Jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

III. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI

3.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

3.2. Jamiyatning faoliyatidan asosiy maqsad respublikaning barcha hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, konlarni izlash, baholash va qidirib chamalashni o'z ichiga olgan geologiya - qidiruv ishlarini olib borishdan iborat. Bundan tashqari analitik, tematik va regional geologik tadqiqotlar va laboratoriya tahlili, topografik, geologik tasvirlash va xaritalash ishlari, va boshqa foydali qazilmalarni qidirish, baholash, razvedka qilish ishlarini olib boradi.

3.3. Jamiyat o'zining asosiy maqsadidan kelib chiqib, faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

➤ bashoratli resurslarga geologik salohiyati bo'lgan maydonlarda rangli va qimmatbaho metallarni izlash, ularning istiqbollari aniqlash maqsadida geologik qidiruv, ishlarini olib boradi;

➤ rangli va qimmatbaho metallar hamda ularga qo'shib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olish uchun geologiya - qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich (izlash, baholash va qidirish) olib borish;

➤ rangli va qimmatbaho metallar bashorat resurslariga ega bo'lgan maydonlarda foydali qazilma konlarini qidirib topib, ularning zahiralarini aniqlash maqsadida geologik qidiruv, baholash va razvedka ishlarini olib boradi;

➤ rangli va qimmatbaho metallar va boshqa foydali qazilma konlarida, geologik-qidiruv ishlari olib borishda zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy qiladi;

➤ rangli va qimmatbaho metallar istiqbolli maydonlarni topish uchun ilmiy-tematik ishlarini olib borib, bashoratli resurslari mavjud maydonlarning mayda, o'rta va yirik masshtabli geologik xaritalarini yaratadi.

3.4. Jamiyat o'z faoliyati mobaynida o'zining asosiy vazifalariga muvofiq:

yer qa'rini geologik o'rganish sohasida Jamiyatning uzoq muddatli, o'rta muddatli va yillik dasturlarini ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga (keyingi o'rinlarda – Kon-geologiya vazirligi) taqdim etadi;

➤ o'z vakolati doirasida davlat byudjeti va maxsus mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi hududida geologik-qidiruv ishlarini olib borish uchun loyiha va smeta hujjatlarini ishlab chiqadi va Kon-geologiya vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

➤ o'z vakolati doirasida olib borilgan geologik-qidiruv ishlari natijasini ifodalovchi hisobotlarni Kon-geologiya vazirligiga taqdim etadi;

➤ Jamiyat vazifalaridan kelib chiqqan holda foydali qazilma konlarini qidirish va baholash ishlarini olib borish mobaynida Kon-geologiya vazirligiga qo'shimcha takliflarini taqdim etadi;

➤ Kon-geologiya vazirligi tasarrufidagi Jamiyatlar, boshqa tashkilotlar va alohida ijrochilar bilan birga shartnoma asosida Jamiyatga berilgan geologik topshiriqlarni bajarish uchun subpudrat shartnomalarini shakllantiradi, tuzadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

➤ yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan Kon-geologiya vazirligi bilan kelishilgan holda xorijiy investorlarining buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida geologik-qidiruv ishlarini olib boradi;

➤ Jamiyat yetakchi mutaxassislardan iborat Ilmiy-texnik kengash (ITK) tuzadi, ITK haqidagi Nizom Jamiyatning Boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi;

➤ belgilangan tartibda yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasida noshirlik faoliyatini amalga oshiradi;

➤ Jamiyat va uning hududiy bo'linmalarida ishlab chiqarishning bexatar sharoitlarini yaratish maqsadida, yong'in xavfsizligi, yo'l harakati xavfsizligi, sanitariya va ekologiya normalari, geologik-qidiruv va yordamchi ishlarni olib borish xavfsizligi qoidalarining talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

➤ olib borilayotgan geologik-qidiruv ishlarining tabiiy muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

➤ davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni maxfiylikni ta'minlaydi, maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi, tijorat siri bo'lgan ma'lumotlarni muhofaza qilish tarkibi, hajmi va tartibini belgilaydi;

➤ Jamiyat obyektlarining va aholi yashash joylarining fuqarolik muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

3.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradi.

IV. JAMIYAT USTAV FONDI (USTAV KAPITALI) NING MIQDORI

4.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

4.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) 709 180 869 200 (yetti yuz to'qqiz milliard bir yuz sakson million sakkiz yuz oltmish to'qqiz ming ikki yuz) so'mni tashkil etadi va har birining nominal qiymati 100 (yuz) so'm bo'lgan 7 091 808 692 dona (yetti milliard to'qson bir million sakkiz yuz sakkiz ming olti yuz to'qson ikki) dona oddiy aksiyalarga bo'linadi.

4.3. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

4.4. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni, nominal qiymati 100 (yuz) so'm bo'lgan egasining nomi yozilgan 10 000 000 000 (o'n milliard) dona oddiy aksiyalardan iborat.

4.5. Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi yagona aksiyador qarorida joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birjadan tashqari bozorga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi belgilanadi.

4.6. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

4.7. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

Jamiyatning ustav fondini kamaytirish

4.8. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.9. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kamayib ketsa, Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirishga haqli emas.

4.10. Ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish to'g'risida yagona aksiyador qaror qabul qilingan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav (ustav kapitali)ni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

4.11. Davlat ulushining vujudga kelishi va miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq ta'sis hujjatlariga (Ustavga) kiritiladigan o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish Davlat aktivlarini boshqarish agentligining tegishli buyrug'i mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

V. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI VA ULAR BO'YICHA DIVIDENDLAR TO'LASH TARTIBI

5.1. Jamiyatning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy va imtiyozli bo'lishi mumkin.

5.2. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

5.3. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

5.4. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

5.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

5.6. Jamiyat bir yilda bir marta moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'laydi, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

5.7. Dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

VI. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

6.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

6.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

6.3. Jamiyat ustav fondining 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

6.4. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

VII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANI TUZILMASI

7.1. Jamiyatning Boshqaruv organlari:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Boshqaruv.

VIII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

8.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori Boshqaruv organidir.

8.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan

kechiktirmay o'tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi (yillik) umumiy yig'ilishi har yili odatda may-iyun oylarida o'tkaziladi.

8.3. Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, Boshqaruv va nazorat organi a'ziligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

8.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

8.5. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonun va Jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak, Jamiyatning imtiyozli aksiyalari Qonunga muvofiq ovoz berish huquqini olishi hollari bundan mustasno. Bunda ushbu bobning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalar qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

8.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashining (shu jumladan mustaqil a'zolarini) son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyat ustav fondini ko'paytirish;
- Jamiyat ustav fondini kamaytirish;
- Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- Jamiyatning Boshqaruv organini shakllantirish hamda uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, Taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalari miqdorlarini belgilash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining va Taftish komissiyasining (Taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va Taftish komissiyasining (Taftishchisining) xulosalarini eshitish;
- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida Qonuning 35-moddasida va mazkur ustavda nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- Qonunning VIII-bobiga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
- Qonunning IX-bobiga asosan Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;
- Jamiyatning Boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;
- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini miqdoriga ko'ra Kuzatuv kengashiga va (yoki) Boshqaruv organiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) saqlash xarajatini qoplash tartibini belgilash (tasdiqlash);
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat Boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish.

8.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

8.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlar fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning rasmiy veb-saytida ham joylashtiriladi.

8.9. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq chaqiriladi va o'tkaziladi.

IX. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

9.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

9.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 (besh) kishidan, shundan kamida 1 nafar xorijiy malakali mutaxassislardan iborat bo'lishi kerak.

9.2.1. Kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'lmagan (ustavda nazarda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15% kam bo'lmagan) mustaqil a'zosi kiritiladi.

Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'ngi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarning besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga tengamaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'ngi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'ngi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomoidan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singilari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan xujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliciga nomzodlarni jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (yagona aksiyador) ko'rib chiqishi uchun, qoida tariqasida tanlov ko'rsatish, bunda aksiyadorlar tomonidan xam tanlov asosida yoki "headhunter" kompaniyasi orqali tanlab olingan nomzodlar mustaqil a'zolik uchun jamiyat kuzatuv kengashi muxokamasiga kiritilishi mumkin.

Jamiyat jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

9.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

➤ Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat Boshqaruv organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

➤ aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

➤ aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

➤ aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

➤ Qonunning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

➤ mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

➤ Jamiyatning Boshqaruv organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

➤ korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

➤ Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullash;

➤ ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini lavozimga tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

➤ Jamiyat Boshqaruv organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu

hujjatlarni Boshqaruv organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish hamda ularning nizomlarini tasdiqlash;

- sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi);

- Qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qo'shimcha aksiyalar chiqariluvini to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish;

- lozim bo'lsa, har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning Boshqaruv organining Boshqaruv raisi o'rinbosarlarini saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Jamiyatning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etish;

- Jamiyat mulkini begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, Jamiyat ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) kelishish.

- Jamiyatning ichki korporativ va normativ hujjatlarini tasdiqlash (AUY vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno).

9.4. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlari soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar

o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak

9.5. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylanishi mumkin.

9.6. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil qiladi, Jamiyat Boshqaruv organi – Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari bilan tuziladigan mehnat shartnomasini imzolaydi.

9.7. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

9.8. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi. Jamiyat faoliyatida har chorakda Boshqaruv organining hisobotini eshitish bo'yicha Kuzatuv kengashining majlislarini sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

9.9. Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

9.10. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozi kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

9.11. Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.

9.12. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda Qonunda va ushbu Nizomda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi

9.13. Jamiyatning Kuzatuv kengashi mazkur ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

X. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANI

10.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial Boshqaruv organi – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruv 6 (olti) kishidan iborat bo'lib, uch yil muddatga saylanadilar (tayinlanadilar).

10.2. Boshqaruv Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

10.3. Boshqaruv aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

10.4. Jamiyat Boshqaruv raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan, Boshqaruv raisi o'rinbosarlari Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadilar (tayinlanadilar).

Jamiyat Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari va a'zolarini tayinlash, qoida tariqasida, xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi. Bunda Jamiyatning Boshqaruv lavozimlariga kamida 3 nafar malakali xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi.

Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Boshqaruv raisi surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.

10.5. Boshqaruv raisi va uning a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, mehnat shartnomasida belgilanadi. Boshqaruv raisi va uning a'zolarining harakati (harakatsizligi) natijasida Jamiyat manfaatlariga yetkazilgan har qanday zarar, ziyon, ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarima, penya va boshqa majburiy to'lovlar uchun ushbu shaxslarning subsidiar javobgarligini ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida ko'zda tutiladi.

10.6. Boshqaruvning vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

10.7. Boshqaruv aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

10.8. Jamiyat Boshqaruv raisining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;
- Jamiyat nomidan ishonchnomalarni berish;
- o'z vakolatlari doirasida, Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;
- xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- Boshqaruv bilan kelishgan holda Jamiyatning shtatlar jadvali va lavozimlar nomenklaturasini tasdiqlash hamda Jamiyat xodimlariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;
- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi shtatlarini tasdiqlash va uning rahbarini tayinlash;
- Jamiyatning barcha xodimlari, aksiyadorlik jamiyatlari va tashkilotlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar qabul qilish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ishtirok etish;
- banklarda hisob raqamlar (milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlar) ochish;
- Jamiyatning bank va boshqa moliya xujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;
- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;
- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ularning mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash.

10.9. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tassarruf etish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar (markaziy apparat) to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash bundan mustasno;

- aksiyadorlik jamiyatlar, tashkilotlar, vakolatxonalar va filiallar uchun majburiy bo'lgan Jamiyat Boshqaruvining qarorlarini qabul qilish;

- Jamiyat filiallari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

- Jamiyat tuzilmasiga vakolat doirasida xodimlarning umumiy soni doirasida o'zgartirish kiritish;

- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni bajarilishini nazorat qilish;

- Jamiyatning vakolatli Boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

- qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi va ishonchligini, hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning yagona aksiyadori, Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi va Jamiyat auditori talabiga ko'ra to'sqinliksiz taqdim etish;

Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizigacha bo'lgan miqdorda bitim tuzish. Bunda Jamiyat boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat Boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin;

- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash;

- dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

- har qanday bitim tuzilishida yoki Jamiyatga bevosita tegishli har qanday masalada muhim manfaatdorligi (to'g'ridan to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) to'g'risidagi ma'lumotlarni Jamiyat Kuzatuv kengashiga yetkazish;

- Jamiyatning reputatsiya risklarini boshqarish;

- Jamiyatning Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, mazkur ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10.10. Boshqaruv raisi va uning a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

Agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida, jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzдорligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Boshqaruv mazkur ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Jamiyatning Boshqaruv organi to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat olib boradi.

XI. ICHKI AUDIT XIZMATI

11.1. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan taqdirda Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Ichki audit xizmati xodimlarining soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va vazifalarini hal etish uchun yetarli bo'lishi kerak hamda korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan sertifikatsiyalangan ikki nafar ichki auditordan iborat etib belgilanadi

11.2. Jamiyatning ichki audit xizmati quyidagilarni tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyat Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi:

Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini;

Jamiyatning buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini;

Jamiyatning xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini;

Jamiyat aktivlarning saqlanishini, ustav fondidagi 50 foiz ulush Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalarni, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini.

11.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlarida, ushbu Ustav va Yagona aksiyadorning qarori bilan tasdiqlanadigan "Jamiyat ichki audit xizmati to'g'risida"gi nizomda belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

XII. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

12.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Taftish komissiyasini bir yil muddatga saylaydi. Jamiyat Taftish komissiyasi a'zolari 3 kishidan iborat bo'ladi.

12.2. Taftish komissiyasining talabiga binoan Jamiyatning Boshqaruv organi moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Taftish komissiyasiga taqdim etishlari shart.

12.3. Taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

12.4. Taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, shuningdek Jamiyatning Boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Ayni bir shaxs ayni bir Jamiyatning Taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

12.5. Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish Taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

12.6. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Jamiyatning Taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

➤ Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

➤ buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

12.7. Taftish komissiyasining xulosasi mazmuniga qo'shimcha talablar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

12.8. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Kuzatuv kengashining majlisida va aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitaladi.

12.9. Taftish komissiyasi mazkur ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat Taftish komissiyasi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi va ularga belgilangan tartibda mukofot puli to'lanadi.

12.10. Jamiyatda Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

12.11. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida tartibga solinadi.


XIII. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

13.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

13.3. Mazkur Ustav va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

"O'zbek geologiya qidiruv" AЖ
Boshqaruv raisi



III. Alimov

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi



GUVOHNOMA

Yuridik shaxs

"O`ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI

Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda yuridik shaxs - tadbirkorlik subyektining to'liq nomi

"O`ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AJ

Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi

308 743 271

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

02.08.2021

Sana

1020857

Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

AKSIYADORLIK JAMIYATI

Faoliyat yuritadigan manzil:

TOSHKENT SHAHRI, MIROBOD TUMANI, T. SHEVCHENKO KO'CHASI, 11A-UY

Tomonidan berilgan:

MIROBOD TUMANI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI

1108166



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgartirish dan oldin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
308 743 271

Nomi
O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toshkent shahri, Mirobod tumani, T. Shevchenko
ko'chasi, 11A-uy

O'zgartirishdan keyin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
308 743 271

Nomi
O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toshkent shahri, Mirobod tumani, T. Shevchenko
ko'chasi, 11A-uy

14.07.2023

2214570

Guvohnoma olingan sana Ariza raqami

1108165



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

Oldingi ta'sislar

Yuridik shaxs
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIVA VAZIRLIGI

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR):
201122919

Miqdori: 801 287 349 800
so'm

Ulush:
100.00%

Ustav fondi

801 287 349 800 so'm

14.07.2023

2214570

Guvohnoma olingan sana Ariza raqami

1108165





O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma so'ralmoqda

O'zgarishdan keyingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot
Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 7091808692

Aksiya bahosi: 100 so'm

QILIRISAV AYILLOM IZAXILBUQ236 JOT2X233 O

Ustav fondi

709180869200 so'm



14.07.2023

2214570

Quvohnoma olingan sana Ariza raqami



1108165

012



0218011

0124155

ES05.YD.A1

0124155

ES05.YD.A1



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma so'ralmoqda

O'zgarishdan keyingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 7091808692

Aksiya bahosi: 100 so'm

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 7091808692

Aksiya bahosi: 100 so'm

QILIRISAV AYILLOM IZAXILBUQ236 JOT2X233 O

QILIRISAV AYILLOM IZAXILBUQ236 JOT2X233 O

Ustav fondi

Ustav fondi

709180869200 so'm

709180869200 so'm

Aksiya bahosi: 100 so'm

Aksiya bahosi: 100 so'm

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 7091808692

Aksiyalar soni: 7091808692

Aksiya bahosi: 100 so'm

Aksiya bahosi: 100 so'm